

TURA SULAYMAN IS FOLK POET**Vazira Ahmadqulova,**

Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabi o'quvchisi

Ilmiy rahbar: Husniddin Hayitov,

Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabi o'qituvchisi

Annotation: The article analyzes the poems of the national poet of Uzbekistan Tori Suleiman. It also contains an analysis of the views of literary scholars on the poet's poetry.

Key words: poetry, method, folk, drum, folklore, tradition, custom, folk, epic.

TO 'RA SULAYMON – BAXSHIYONA SHOIR**ТУРА СУЛАЙМОН ПОЭТ ДЛЯ НАРОДА****Vazira Ahmadqulova,**

Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabi o'quvchisi

Ilmiy rahbar: Husniddin Hayitov,

Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri To'ri Sulaymonning ba'zi she'rlari tahlil qilingan. Shuningdek, shoir she'riyatiga adabiyotshunos olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: she'riyat, usul, xalqona, do'mbira, folklor, an'ana, udum, xalq, doston.

Аннотация: В статье анализируются стихотворения народного поэта Узбекистана Тори Сулеймана. В нем также содержится анализ взглядов литературоведов на поэзию поэта.

Ключевые слова: поэзия, метод, народный, барабан, фольклор, традиция, обычай, народный, эпос.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da “baxshi” so'zining to'rt xil ma'nosi keltirilgan. Birinchisi donishmand, ikkinchisi dostonlarni kuylovchi, uchinchisi dam solib davolovchi, ya'ni tabib, to'rtinchisi esa Buxoro xonligida qurilish mablag'larini nazorat qiluvchi. Yuqorida to'rt ma'nodan ikkitasi bevosita doston aytuvchi baxshilarga tegishli, desak, o'rinli. Chunki xalq orasida baxshi bo'lish uchun inson donishmand, keng dunyoqarashli, aqlli bo'lishi kerak, degan fikr qayta-qayta ta'kidlanadi. Ikkinchidan, “baxshi” lug'atda izoh berishicha, xalq dostonlarini ijro etadi. Uchinchidan, qadim zamonlarda xalq tasavvuridagi baxshilar so'zning mo'jizaviy fazilatlaridan foydalanib kishilarni turli xil xastaliklardan forig' bo'luvchi odamlar hisoblangan.” [1,162]

Baxshiyona uslubida yozish oddiy, sodda ko'rinadi. Lekin aslida baxshiyona usulda yozish uchun xalq ijodini, xalq turmushini, xalq shevasini, o'zini o'tmishini, urf-odatini, qayerdan kelib chiqqanini, yetti ajdodini yaxshi bilishi kerak. Mana shunday shoirlardan biri To'ra Sulaymon edi. “To'ra Sulaymon she'rlarining o'ziga xos qirrasini ularning baxshiyona uslubida yozilganligidadir.” [2, 25]

U doim Vatan haqidagi she'rlarini madh ila jo'shib kuylagan. To'ra Sulaymon bugungi kun, hozirgi zamon talablarini qondirishda qadim Turon o'tmishiga boqadi. To'ra Sulaymon o'zbekning ibratli rivoyatlari, milliy urf-odatlari, nasldan naslga o'tib kelayotgan o'xshashlik va xalqimiz maqollaridan keng qo'llay olganligi uchun ham uni o'zgacha shoir deb bimalol aytish mumkin. To'ra Sulaymon esa Vatan tarixini, o'zbekning qonli o'tmishini, uning qadimiy urf-odatlari, an'analari orqali yoshlar ongiga singdirishda o'zining munosib hissasini qo'shdi. To'ra Sulaymonni bir ovozdan folklorizmni she'rlarida aks ettira olgan shoir deyishimiz mumkin. Negaki shoir xalqimizning sermazmun maqollarini she'rga solib,

qofiyaga tushira olgan. U maqollarni aynan o'zini olmagan, balki uni o'zi mantiqiy davom ettirgan, boyitgan. Mag'rur o'zbek tarixiga qaytib, o'sha davrdagi vaziyatni aks ettira olgan.

Sirdaryoda tug'ilgan To'ra Sulaymonning ijodini baxshiyona shoir deyilishi bejiz emas. Chunki uning she'rlari ma'noga boy, odamlarga xalq tili, ya'ni shevaga xos so'zlari orqali shoirning asl ildizini, otabobosini eslatib turadi. Zero, To'ra Sulaymonni To'ra Sulaymon qilib turgan ham xuddi shu jihatdir. To'ra Sulaymon Sirdaryoning mashhur baxshisi, hazilkash, samimiy, ba'zida esa jiddiy, sermazmun ijodkor bo'lgan. Ushbu inson haqiqiy o'zbek farzandi edi. Bu haqda ustoz Qozoqboy Yo'ldoshev "Sensiz yolg'iz, g'arib bo'ldim" kitobining "Ikkinchi umr manzillari" maqolasida shunday ta'rif beradi:

"To'ra Sulaymon tamomila o'ziga xos shaxs edi va bu qaytarilmas shaxsiyat uning bitganlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir ijodining bosh belgisi uning to'lig'icha xalq og'zaki ijodi namunalari ta'sirida ekanidadir." [3, 5]

Bunday iste'dod o'z-o'zidan bo'lmaydi. Chunki uning muayyan asoslari bor. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev u tug'ilib o'sgan, yashagan muhitga bog'laydi. Ta'kidlashicha, o'qib yurgan paytlarida hamma davralarga intilsa, To'ra Sulaymon daftar ko'tarib, qishloqma-qishloq yurib, odamlar og'zidan daftar-daftar folklor namunalarini yozib olar va uni tezroq gazeta, jurnallarga chiqarish payida bo'lar ekan. Shuningdek, xalq og'zaki ijod namunalarini qayta-qayta o'qib, zavqlanarkan.

"To'ra Sulaymon – baxshi shoir. She'rlari xalq tiliga, diliga yaqin. Shoir xalq og'zaki ijodini yozma adabiyotga uyg'nlashtirgan deyish mumkin. To'ra Sulaymon she'rlarining aksariyati baxshiyona uslubda yozilgan." [3, 384] Ayniqsa, uning "Ergash Jumanbulbul o'li el kezadi" sarlavhasi ostida yozilgan asarlari To'ra Sulaymon ijodining gultojidir.

Shoirning ayrimlar she'rlariga e'tibor beramiz. Xususan, "Shoirlardan so'z ochsam" she'ri fikrlarlarimizga mutanosib:

Shunqorlardan so'z ochsam,

Jo'sha bergim keladi,

Doston ustiga doston

Qo'sha bergim keladi. [4, 10]

Bu xuddi baxshilarning dostonni aytishdan oldingi do'mbirasini – sozini sozlab, o'zining ilhomi kelishiga o'xshaydi.

Sozim turib, yangi soz

Yo'na bergim keladi.

Bulbul bo'lib har boqqa

Qo'na bergim keladi. [4, 10]

Har bir baxshini o'zining sozi, ohangi bor. Lekin ilhom kelganda baxshi ham yangi-yangi narsalarni kuylayveradi. Nazarimizda, baxshi ham faqat ilhom kelganda baxshi. Lekin qolgan vaqtlarda u ham oddiy qo'shiq va termalar kuylaydigan inson. Axir ilhomni majburlab bo'lmaydi-ku?

To'ra Sulaymonning yana bir she'rida shunday yozadi:

Aylanayin bolam-ov,

Toqqa bitgan lolam-ov,

Bo'ta ko'zim, sochlari

Kunduzdan ham qoram-ov,

Birpas bo'ying ko'rmasam

Menda bo'lmas orom-ov. [4, 13]

Bu she'r xuddi "Kuntug'mish" dostonini eslatdi. Doston qahramonlari Kuntug'mish va Xolbeka taqdir taqazosi bilan bolalarini yo'qotib qo'yishadi. Ushbu misralar beixtiyor ota-onaning farzandiga bo'lgan mehr-muhabbatini yanada ko'proq his qilish mumkin. Chunki Ergash Jumanbulbul aynan shu dostonni ilhomlanib kuylagan. To'ra Sulaymonni ilhomlantirgan manba ham shu.

"Tanimadingmi" she'riga e'tiborimizni qaratsak:

Yoshlik tark etmishdir bog'larimizni,

Kuch-qudrat suyangan tog'larimizni,

Dunyoga bergusiz chog'larimizni,

Bo'y-basti kamonni Tanimadingmi? [3, 81]

Bu misralar ham “Kuntug‘mish” dostonini eslatadi. To‘g‘ri, dostonlar ko‘p. Lekin dostondagi ikki aka-uka Gurkiboy va Mohiboyning tasodifan uchrashib qolishgandagi holatlari, ularning bir-biriga aytmoqchi bo‘lgan dil so‘zlari aynan mana shu baytda mujassam deb qarash mumkin. Fikrimizcha, To‘ra Sulaymonni baxshilardan ilhomlangan baxshiyona shoir deyishlariga ham sabab shunda.

Uning bunday jihatlarini “Sohibi davronimsan” she‘rida ham seziladi:

***Bolajon, bag‘rimizning butunligi sen bilan,
Davru davronimizning durkunligi sen bilan,
Qizg‘aldoq faslining ham yaqinligi sen bilan,
Bola, bolajonimsan,
Beg‘ubor osmonimsan. [5, 3]***

Ushbu she‘rda To‘ra Sulaymon go‘zal bolalikni tasvirlaydi. Bolalik eng beg‘ubor davr. Shoir millatimizning bir butunligi, uning quvonchi, buguni, ertasi barcha-barchasi aziz bolajonlarimiz, ya‘ni farzandlar ekanligini ta‘kidlaydi.

***Istagim: bo‘ylaringga hech kimsa zor bo‘lmasin,
Ko‘ksida armonlari qat-qat bisyor bo‘lmasin.
Umidlari – bemavrid uzilgan tor bo‘lmasin.
Bola, bolajonimsan.
Bulbuli zabonimsan. [5, 3]***

Bu parcha esa “Alpomish” dostonini eslatadi deyish mumkin. Ayniqsa, “Istagim bo‘ylaringga hech kimsa zor bo‘lmasin” misralari. Dostonda Boybo‘ri va Boysari farzandsiz bo‘lishadi. Ular Shohimardon pirning ravzasiga borib farzand so‘rashadi. Shunda tangrining ularga rahmi kelib, farzand ato etadi. Ushbu bandda ham hech kim farzanddek baxtdan mahrum bo‘lmasin, ko‘ksida armonlari qolmasin, umidlari bemavrid uzilmasin degan g‘oyalar ilgari surilgan.

“Men qayga borar bo‘lsam” she‘rini ko‘rib chiqsak:

***Termalarim, termalar
O‘ngimda ham tushimda
Ko‘rinasiz ko‘zimga,
Hatto qilgan ishimdan –
Ulfatimsiz termalar. [6, 4]***

Shoir bejizga bu she‘rni “Men qayga borar bo‘lsam” deb nomlamaydi. Ushbu she‘ri orqali men qayerga borsam, o‘ngimda, tushimda, hatto qilgan ishimda ham termalarim, qo‘shiqlarim bilan yashayman. To‘ra Sulaymon o‘zining asarlarini do‘stim deb biladi. “Ulfatimsiz termalar” Hatto ularsiz yashay olmaydi ham.

***Terma – bobongning so‘zlar
So‘zi bo‘lgan, deydilar,
Yetuk dilkash oqinning
O‘zi bo‘lgan deydilar,
Otameros termalar [6, 4]***

Shoir “Otameros termalar” misrasini shunchaki ishlatmaydi. U ota-bobolaridan meros bo‘lib kelayotgan folklorni she‘rlarida aks ettirib, adabiyotga xalqona ruh olib kiradi. O‘zbek folklorida millatimizning o‘zligi mujassam.

U nafaqat baxshiyona she‘rlar, dostonlar yozgan, balki yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida kamol topmog‘i uchun ona Vatanimiz madhi kuylangan bir qator she‘rlar ham bitgan. “To‘ra Sulaymon folklor an‘analaridan foydalanish orqali xalqonalikni ta‘minladi,” – deyilgan adabiyotlarda. Nazarimizda, To‘ra Sulaymonni To‘ra Sulaymon qilgan ham o‘zining tug‘ma iste‘dodli, baxshitabiat shoirligidadir. U do‘mbirasiz, qalam bilan kuylay olgan chinakam baxshi edi. To‘ra Sulaymon xalq og‘zaki ijodi bilimdoni hamdir. Bu uning she‘riyatini o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Omonulla Madayev. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent:, Mumtoz so‘z nashriyoti. 2010. 228 b.
2. Ravshanbek Mahmudov. To‘ra Sulaymon. – Toshkent:, G‘afur G‘ulom nashriyoti. 2008. 63 b.
3. To‘ra Sulaymon. Sensiz yolg‘iz, g‘arib bo‘ldim. – Toshkent:, Movarounnahr nashriyoti. 2013. 399 b.

4. To'ra Sulaymon. Iltijo. –Toshkent:, Adabiyot va san'at nashriyoti. 1976. 40 b.
5. To'ra Sulaymon. Qorako'zginam. – Toshkent:, Yosh gvardiya nashriyoti. 1981 64 b.
6. To'ra Sulaymon. Men qayga borar bo'lsam. Toshkent:, Yosh gvardiya nashriyoti. 1965. 34 b.